

## Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

*5111400 - Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)*- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ingliz tili o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

### **5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi**

#### **4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

*5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)*– umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ingliz tili o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

#### **4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari**

*5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)*– ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, ingliz tili o'qitish usullari.

#### **4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

*5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)*– ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- ***o'qituvchilik;***
- ***tarbiyachilik;***
- ***o'quv-metodik;***
- ***ilmiy-tadqiqot.***

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

#### **4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari**

*5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy

turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ingliz tili o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

- **o'quv-metodik:** mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

**ilmiy-tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.